

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMGGA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Ibragimova Nasiba Xalimovna*

*Andijon viloyati Oltinko'l tumani 28-maktab boshlang'ich fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limga zamonaviy yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim jarayonining shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan sifatli natijalarga olib keladigan islohotlar, umumiy o'rta ta'limning ilk bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'lim to'g'risida to'liq bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, zamonaviy yondashuvlar, ta'lim tizimi, amaliy ko'nikmalar, kompetensiyaviy yondashuvlar.

### **Kirish:**

Ma'lumki, ta'limga zamonaviy yondashuvlar ta'lim jarayonini aniq vositalar orqali samarali tashkil etish va qo'yilgan o'quv dasturlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Mamlakatimiz rahbari dastlab maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqatgina yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish kerakligini ta'kidladi. Bu borada Finlyandiya tajribasi misol etib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri hisoblanadi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Boshlang'ich maktabda olingan ta'lim keyingi ta'lim uchun asos, poydevor bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim boshlang'ich maktabning sifat tomonidan yangi shaxsga yo'naltirilgan takomillanish modelini belgilaydi, u mazkur muhim maqsadlarga erishish uchun mo'ljallangan: o'quvchi shaxsini takomillashtirish, uning ijodiy qobiliyatlari, o'qishga qiziqish, o'rganishga intilish va qobiliyatni oshirish; ma'naviy-axloqiy va estetik tarbiya; turli tadbirlarni amalga oshirishda bilim, ko'nikma, tajriba tizimini o'zlashtirish; bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza etish va mustahkamlash; bolaning individualligini saqlash va qo'llab-quvvatlash.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun muvaffaqiyatli, ustuvor yo'nalishlardan biri bu – o'quvchilarning yetuk shaxs sifatida shakllanishi, shuningdek milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosidan iboratdir. Zamonaviy ta'lim O'zbekiston yoshlarini istiqbolli kelajakka yetkazadi. Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu sabab, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q.

### **Natijalar:**

Ta'lim tizimida hamda boshlang'ich ta'limga kompetensiyaga asoslangan yondashuvning joriy qilish masalasi bo'yicha psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil etish "kompetensiya" tushunchasini o'rganish sub'ektining olingan o'quv bilimlari, malakalari va amaliy ko'nikmalaridan masalalarini hal etishda foydalanishga tayyorligi sifatida aniqlashga imkon yaratdi.

Pedagogik nuqtai nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan hamkorlikda ishlash mohiyatining takroriy umumlashtiruvchi dars tuzilishida, avvalo, darsning tashkiliy qismi, ikkichidan, darsning maqsad va vazifalarini belgilab olish, uchinchidan, o'quv materiallarini umumlashtirish va tizimlashtirish, to'rtinchidan esa dars yakuni va uyga vazifalarga ahamiyat qaratish kerak. Boshlang'ich sinf darslarini tashkil qilishning murakkab tomoni shundaki, unda o'quv materiallar aniq belgilab olinishi, asosiy fikr, tushuncha, qoida, unga mos mashq topshiriqlarini ajratib olish kerak. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, darsda nutqning ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklari qaytariladi. Vaqtning chegaralanganligi tufayli, ularning har biriga alohida to'xtalib bo'lmaydi. Shuning uchun ham tanlangan mashq va topshiriqlarda nutqning tarkibiy qismlari o'zaro aloqador shaklda bo'lishi zarur.

### **Muhokama:**

Boshlang'ich sinflarda pedagogik hamkorlikning mohiyatini tizimlashtirish va umumlashtirish darsining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, o'qituvchining o'zi tushunib, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqaradi. Asosan har bir o'quv predmetining materiallari boblarga, qismlarga, bo'laklarga va alohida mavzularga bo'lib o'rganiladi. Umumlashtiruvchi darslarni esa tarkibiy qismlarga bo'lib, o'rganilgan materiallarni umumlashtirishga, ular o'rtasidagi aloqadorlik va yaxlitlikni tushunib yetishga yordam beradi. Bundan ko'rinib aniq ko'rinib turibdiki, o'quvchilarda

idrok, tasavvur, mantiqiy, dunyoqarashi kengayadi, murakkab topshiriqlarni bajara olish malakalari takomillashadi.

Boshlang'ich sinf darslarini to'g'ri tashkil qilishda pedagogik maqsad va vazifalarni chuqur anglagan holda didaktik qoidalarga va darsning muhim vazifalariga rioya qilib, har bir dars jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy va takomillashtiruvchi vazifalarni amalga oshirishga qaratish muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi vaqtda ta'limda boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitilishining tashkil qilinishi va mazmuniy puxtaligi tomondan mukammal holga keltirish, bu sohani yanada shakllantirish uchun yangicha fikrlaydigan, o'qitishning zamonaviy metod va shakllari, usullaridan o'rinli va samarali foydalana oladigan yuqori malakali pedagog kadrlar judayam kerak.

### **Xulosa:**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim bosqichiga davlat va jamiyat tomonidan belgilangan talabda ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg'unlik to'la ta'minlangan bo'lishi lozim. Shu tomondan boshlang'ich ta'lim standartini belgilash ta'lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyani foydalanish imkonini yaratadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Muxtarova, L. A. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni. Научный поиск в современном мире, 2017.
2. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogika. TDPU, 2007.
3. Muxtarova, L. A.. Boshlang'ich sinflarda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari. Aprobatsiya, 2017.
4. Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P «Boshlang'ich sinfiarda tabiiy materiallardan amaliy ishlar» o'quv-metodik qo'llanma 2009.